

Munosib bo‘l

Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga,
Olam ahlini uyg‘otgan daholarga.
Oqqan daryo oqar, qo‘shil daryolarga,
Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga.

G‘aflat bilan loqaydlikni do‘st tutmagin,
Begonaning himmatiga ko‘z tutmagin.
Sen kimlarning avlodisan – unutmagin,
Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga.

Bobolaring ot o‘ynatib dunyo kezgan,
Muhtojlarga muruvvatli qo‘lin cho‘zgan.
Ulug‘beklar ot ustida yulduz uzgan,
Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga.

Gul bo‘lsa gar, o‘z dalasin guli bo‘lgan,
Qul bo‘lsa gar, o‘z ko‘nglining quli bo‘lgan.
Bu ko‘ngilda Vatani va eli bo‘lgan –
Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga.

Navoiyning navosiga to‘lgan dunyo,
Sino malhamidan odam bo‘lgan dunyo.
Amir Temur kulsa, baxti kulgan dunyo,
Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga.

Qorako‘zim, gard qo‘nmasin ko‘z-qoshingga,
Yuksal, do‘stim, intil tole quyoshingga.
Ishon faqat o‘z qalbingga, Yurtboshingga!
Bobolarga munosib bo‘l, bobolarga.

Iqbol Mirzo
O‘zbekiston xalq shoiri
O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasidan